

**QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI  
RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**

**Raxmatov Adham Itolmasovich**

*Qarshi axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti dotsenti,*

**Imomov Mirzohid Kenjaevich**

*Qarshi axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Jahonda xizmat ko'rsatish sohalari o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga, boshqa tomondan sohada mehnatni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra iqtisodiyot tarkibida tobora barqaror mavqega ega bo'lib bormoqda. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanish holati va innovatsiyalarni baholashning iqtisodiy samaradorligi va xizmat ko'rsatishni zamonaviy shakllarda tashkil qilish kabi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada muallif inovatsion rivojlantirish xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirishning konseptual yo'nalishi sifatida yoritib bergan.*

**Kalit so'zlar:** *xizmat, xizmat ko'rsatish, innovatsiya, iqtisod, korxonalar, samaradorlik, foyda, konsepsiya, mexanizm, ta'lim.*

**Annotasiya:** *V mirovoy ekonomike sfera uslug postepenno zanimayet ustoychivoje polojeniye blagodarya svojey sosialno-ekonomicheskoy znachimosti, a takje spesificheskim osobennostyam organizasii truda v dannoy sfere. V nastoyauyeye vremya osoboje vnimaniye udelyayetsya sostoyaniyu razvitiya sfery uslug, osenke ekonomicheskoy effektivnosti innovasii, a takje organizasii obslujivaniya v sovremennyx formax. V statye avtor rassmatrivayet innovatsionnoye razvitiye kak konseptualnoye napravleniye povysheniya effektivnosti sfery uslug.*

**Klyuchevyye slova:** *usluga, sfera uslug, innovasiya, ekonomika, predpriyatiye, effektivnost, pribyl, konsepsiya, mexanizm, obrazovaniye.*

**Abstract:** *In the global economy, the service sector is gradually gaining a stable position due to its socio-economic significance, as well as the specific characteristics of labor organization in this field. Today, special attention is paid to the state of development of the service sector, the assessment of the economic efficiency of innovations, and the organization of services in modern forms. In the article, the author highlights innovative development as a conceptual direction for increasing the efficiency of the service sector.*

**Key words:** *service, service sector, innovation, economy, enterprise, efficiency, profit, concept, mechanism, education.*

**Kirish.** Xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanish maqsadlari va vazifalarini aniq emasligi innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan moliyaviy va boshqa resurlar natijadorligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion faoliyatga samarasiz sarflangan vaqti fan sig'imi yuqori texnologiyalar asosida tashkil etilgan xizmat ko'rsatish jarayonlarining mavjud yuqori sur'atlarini ta'minlash

moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Samaradorligi yuqori innovatsion loyihalarni realizatsiya qilish fan sig'imi yuqori xizmat ko'rsatishning tarmoq korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni nazarda tutgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Korxonalarining innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha muammolarni innovatsion faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimi orqali hal etish mumkin. Ushbu choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xizmat ko'rsatish korxonalarida natijadorlikni oshirishni innovatsion loyihalarni joriy etish va uning samaradorligini oshirish orqali erishish;
- xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini va tashkilotlari hamda oliy ta'lim muassasalari uchun innovatsion sohada ishlash uchun kadrlar tayyorlashni tashkil etish;
- resurslardan samarali foydalanish va uning intensivligi ta'minlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;
- xalqaro, davlat va tarmoq ehtiyojlari va buyurtmalari doirasida xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion faoliyatini faollashtirishni amalga oshirish.

Sohada innovatsion faoliyat bo'yicha funksional tizimni joriy etish orqali tarmoq korxonalarini faoliyatining maqsadlariga muvofiq tashkiliy tarkib bo'yicha mutanosib taqsimlangan bo'lishi kerak.


Fan sig'imi yuqori xizmat ko'rsatish tarmoqlarining istiqbolda rivojlanishi korxonaning innovatsion faoliyatining konseptual yondashuvini talab etadi. Bunda fan sig'imi yuqori xizmatlar turlari bo'yicha raqobat ustunligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy hamda ekologik samaradorligi baholanishi lozim. Innovatsiyalarni joriy etish asosida xizmat ko'rsatish jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishish va korxonaning rentabelligini oshirish uchun innovatsion g'oyalar va ishlanmalarning qaysi biri natijador ekanligini aniqlash va baholash kerak.

Masalan, "maishiy xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish kabi korxonalarda innovatsiyalarni joriy etish quyidagi tadbirlardan iborat bo'ladi: tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda texnologiya innovatsiyalarning zamonaviy, takomillashgan mexanizmlari va konstruksiyalarini joriy etish; xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini boshqarishning innovatsion shakllarini joriy etish; sohada ixtirochilik va novatorlik takliflarini ishlab chiqish"<sup>21</sup>.

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlik texnik-texnologik yangiliklarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonidan iborat tijorat maqsadlarida tashkil etiladi. Yaxlit holda, innovatsion tadbirkorlik mahsulot, ishlar va xizmatlar sohasidagi innovatsiyalarga asoslanadi, bu esa sifat jihatidan farq qiladigan bozorni shakllantirishga, yangi, hatto favqulodda bo'lsa ham, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga ko'maklashadi (1-rasm).

<sup>21</sup> <https://kpfu.ru/docs/F1450504884/Razum1.pdf>



### 3.1-rasm. Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish bosqichlari<sup>22</sup>

Innovatsiyalar, innovatsion texnologiyalar va innovatsion loyihalar mazkur holatga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati uchun o'ziga xos rivojlanish vositasi bo'lib hisoblanadi. Ushbu tadbirkorlik faoliyatining vositasi tarkibiy va tashkiliy maqsadlarni innovatsiyalarni qo'llashga yo'naltirish, innovatsion tadbirkorlarning manfaatlari va huquqlarini kafolatlash, tadbirkorlik tuzilmalarining doimiy e'tiborini innovatsion jozibadorlikni oshirishga qaratishdan iborat.

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:


1. Turli darajalarda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish omillari, xizmatlar bozori, iste'mol bozori, resurslar ta'minoti, raqobatdosh korxonalar, malakali kadrlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan analitik-axborot bazasining takomillashganligi.

2. Rivojlangan aloqa tarmog'ini yaratish orqali konsalting firmalari uchun investorlarga investitsiya obyektlarini tanlashda yordam berish.

3. Barcha fanlar va mutaxassisliklar bo'yicha sohada tadbirkor kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan innovatsion marketing tadqiqotlari markazini yaratish.

<sup>22</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4. Innovatsion korxonalarni ishlab chiqarish quvvatlari, ilmiy-tadqiqot ishlari uchun “asbob-uskunalar bilan ta'minlaydigan, yuridik, moliyaviy, marketing, iqtisodiy va boshqa xizmatlarni taklif etuvchi, intellektual mulk obyektlarini huquqiy va tijoriy himoya qilishda ko'maklashuvchi biznes innovatsiya markazlari, texnoparklar va inkubatsiya tuzilmalarini yaratish. Ahamiyati va miqyosi bo'yicha boshqalar bilan taqqoslanadigan innovatsion rivojlanishning asosiy vazifasi fuqarolarning innovatsion faoliyat kompetensiyalarini, boshqacha aytganda, “innovatsion shaxs” kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. “Innovatsion shaxs” keng mazmunga ega kategoriya bo'lib, har bir fuqaro doimiy o'zgarishlarga: o'z hayotida, iqtisodiy taraqqiyotida, fan va texnika taraqqiyotida, bu o'zgarishlarning faol tashabbuskori va ishlab chiqaruvchisi bo'lishi shart. Shu bilan birga, har bir fuqaro o'zining moyilligi, qiziqishi va salohiyatiga mos ravishda umumiy innovatsion jamiyatda o'z rolini bajaradi. Bunda ta'lim tizimi uning barcha bosqichlarida muhim rol o'ynashi kerak”<sup>23</sup>.



<sup>23</sup> Меджидов А.И. Анализ основных показателей и оценка параметров развития инновационного предпринимательства в России // Вопросы инновационной экономики. – 2011. – №3; <https://moluch.ru/archive/52/6745/>

## 3.2-rasm. Qashqadaryo viloyatida innovatsion tizim shakllanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi<sup>24</sup>

Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida innovatsion faoliyat rivojlanishi uni tartibga solishning huquqiy asoslariga hamda yangi texnologiyani yaratish, ishlab chiqish vaqtini sezilarli darajada qisqartirish va ixtirolarni tijoratlashtirishga bog'liq bo'ladi. Xususan:

- xizmatlar assortimetri bo'yicha ularning turlarini kengaytirish iste'mol bozorida ularning raqobat ustunligini ta'minlash;
- xizmat ko'rsatish sohasida xarajatlar rentabelligini oshirish;
- barcha me'yorlarga mos ekologik xizmatlar ko'rsatish va ushbu xizmatlar tannarxini pasaytirish;
- xizmatlarning sifat xususiyatlarini doimiy va muntazam ravishda oshirib borish;
- xizmatlarga sifat jihatdan yondashuv – keng assortiment va raqobat ustunligiga ega, zamonaviy turdagi, xarajatlarning nisbiy darajasi past bo'lgan, turdosh yangi xizmatlarni yaratishni talab etadi.

Xulosa. Respublikada milliy innovatsion tizimning shakllanishini davlat siyosati doirasida har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy yuksalishi uchun muhim tashkiliy tuzilma hisoblanadi (2-rasm). Respublika milliy innovatsion tizimining rivojlanish omillari va elementlarini o'zaro bog'liqligi chizmasi ushbu sohada strategiyalarini shakllantirish, tegishli innovatsion dasturlarni realizatsiya qilishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va hukumatga taqdim etish hamda hududlar iqtisodiyotining rivojlanishidagi muammolarni hal etishni nazarda tutadi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirishning strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2018-yil 21-sentyabr. [Elektron resurs]. – Kirish yo'li: <https://lex.uz/docs/3913188>

2.O'sha manba.

3.Golubev A.A. *Ekonomika i upravleniye innovatsionnoy deyatelnostyu. Uchebnoye posobiye.* – SPb: NIU ITMO, 2012. – S. 7.;

4.Knyazev S. Application of dynamic capabilities of the economic system for the purposes of sustainable innovation development // Proceedings of the International Scientific Conference "Competitive, Sustainable and Secure Development of the Regional Economy: Response to Global Challenges" (CSSDRE 2018). P. 301-304;

5.Qashqadaryo viloyatida Milliy statistika boshqarmasining rasmiy 2024-2025-yil ma'lumotlari.

<sup>24</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.